# O‘QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA JURNALISTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

**Iskandarova Noila Muxtor qizi**[1]
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi yo‘nalishi
2-kurs magistranti

***Annotatsiya***

Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini shakllantirishda jurnalistik materiallardan foydalanish masalasiga to‘xtaldi. Shuningdek, maqolada bo‘lajak ona tili fani o‘qituvchilarining ona tili darslarida jurnalistik materiallardan foydalanish yo‘llari va mazmunini atroflicha yoritib berish maqsad qilindi va tahliliy munosabat bildirildi.

***Kalit so‘zlar:*** jurnalistik materiallar, jurnalistik materiallardan foydalanish, tanqidiy tafakkur, matn tahlili, bahs va munozaralar, ijodiy yozuv mashqlari, rol o‘yinlari.

***Annotation***

This article focuses on the use of journalistic materials in the formation of critical and creative thinking of students in native language lessons. The article also aims to provide a comprehensively overview of the ways and content of using journalistic materials the content of the use of in native language lessons teachers by future and provides an analytical approach.

***Keywords:*** journalistic materials, use of journalistic materials, critical thinking, text analysis, debates and discussions, creative writing exercises, role-playing.

[1] Iskandarova Noila Muxtor qiziAlisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi yo‘nalishi 2-kurs magistranti. noila.skandarova@gmail.com

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, yangilik yarata oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Shu bois o‘quvchilarda tanqidiy va kreativ tafakkurni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishiga aylangan. Tanqidiy fikrlovchi o‘quvchi faqat tayyor bilimni emas, balki uni tahlil qiladi, baholaydi va yangi g‘oyalar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kreativ tafakkur esa shaxsning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarib, har bir holatda noodatiy yechim topishga yo‘naltiradi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’limni modernizatsiyalash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati shakllandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 3775-sonli qarori (“Ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyun) mazkur yo‘nalishda ilmiy-amaliy izlanishlarning dolzarbligini yanada oshirdi. Shu asosda aytish mumkinki, tanqidiy va kreativ tafakkurni rivojlantirish masalasi ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, uni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va zamonaviy texnologik muhit bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha yangi izlanishlar olib borish qiyindir. Zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsiy fikr yuritish, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy masalalarga ongli munosabat bildirishga qodir o‘quvchi shaxsini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

Tanqidiy tafakkur – bu mavjud ma’lumotlar asosida tahlil qilish, xulosa chiqarish, baholash va muqobil yechimlarni ilgari surish qobiliyatidir. Publitsistik matnlar, ayniqsa dolzarb mavzularga oid maqolalar, o‘quvchilarda mavjud holatni chuqur tahlil qilishga undaydi. Z.Karimovning “Ma’rifat” gazetasida nashr qilingan “Танқидий тафаккур ва ахборот таҳлили” maqolasida ta’kidlanganidek, iqlim o‘zgarishi, korrupsiya, yoshlar muammosi kabi mavzular o‘quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytiradi[2]. Ijodiy tafakkur insonning yangicha yondashuv, innovatsion fikr, erkin ifoda va o‘zini ifodalashga bo‘lgan ehtiyojini

[2]Каримова З. “Танқидий тафаккур ва ахборот таҳлили”. – Тошкент: Маърифат, 2018. – 67-б.

qamrab oladi. Publitsistik janrlarda yozish (maqola, ocherk, intervyu) o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini shakllantiradi. Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchi dolzarb muammolarni o‘z nigohi orqali yoritadi, bu esa “ijodiy tafakkurini rivojlantiradi”[3].

M.Zokirovaning “Pedagogika” jurnalida chop etilgan “Ўқувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш усуллари” nomli maqolasida ta’lim jarayonida publitsistik uslubni samarali o‘qitish uchun quyidagi metodlar tavsiya etiladi: 1. Matn tahlili – o‘quvchilar bilan publitsistik matn ustida muallif pozitsiyasi, asosiy g‘oya va dalillarning tahlilini o‘tkazish. 2. Bahs va munozaralar - ijtimoiy mavzular yuzasidan ochiq munozaralar tashkil etish. 3. Ijodiy yozuv mashqlari – o‘quvchilarga maqola, intervyu yoki ocherk yozish topshiriqlarini berish. 4. Rol o‘yinlari – o‘quvchilarni jurnalist, suhbatdosh, tahrirchi obrazlarida chiqish qilishga undash. Bu metodlar orqali o‘quvchilar faollashadi, fikr bildirish va asoslashga o‘rganadilar[4].

Taniqli olim B.Blum tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan texnikaning muallifi bo‘lib, uni aksariyat metodistlar “Blum moychechagi”, ayrimlari “Blum kubi” deb ataydilar[5]. Mazkur texnika savolni to‘g‘ri qo‘yishni o‘rgatadi. Til ta’limida “Blum moychechagi” texnikasini qo‘llash uchun o‘quv materiallaridan matnlar, shuningdek, videomateriallar tanlanadi. O‘quv materiali bilan ishlashda savollarni qay tarzda tuzish muhim hisoblanadi. V.Snetkov: “Yaxshi savol – muqobil javoblarga yetarli darajada ko‘p imkon qoldiradigan savol” deb ta’kidlagan va savollarning quyidagi vazifalarini belgilagan: yangi axborot olish; mavjud axborotni aniqlashtirish; suhbatni boshqa mavzuga o‘tkazish; javobga yo‘l ko‘rsatish; o‘z fikrini, bahosini, qarashini namoyish qilish; suhbatdoshining ongi va tuyg‘ularini muayyan yo‘nalishga qaratish[6]. To‘g‘ri tuzilgan savollar o‘quvchida vaziyatni tahlil qilish va unga turli rakurslardan qarashga o‘rgatadi.

[3]Расулов А. “Ижодий ёзув машқлари асослари”. – Самарқанд: Зиё, 2016. – 14-б.

[4]Зокирова М. “Ўқувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш усуллари” // Педагогика журнали, 2021, №3. – 26-б.

[5]Загашев И. Умение задавать вопросы // Начальная школа, 2001 (4). – С. 13.

[6]Снетков В.М. Психология коммуникации в организациях (учебное пособие). – Санкт-Петербург: СПбГУ, 1999. – 116 с.

**Topshiriq. Quyidagi iboralarni berilgan jurnalistik vaziyatlarda qo‘llab, kichik xabarlar yozing.**

**“Tishi o‘tmaydi”:** Korrupsiya yoki byurokratiya haqidagi felyetonda (Masalan: Qonun ustuvor bo‘lgan joyda tanish-bilishchilikning “tishi o‘tmaydi”).

**“Xamirdan qil sug‘urganday”:** Muvaffaqiyatli tadbirkor haqidagi ocherkda (Masalan: U murakkab texnologik jarayonni “xamirdan qil sug‘urganday” oson hal qildi).

**“Xamir uchidan patir”:** Yangi ochilgan yirik loyiha haqidagi reportajda (Masalan: Bugungi yutuqlar hali “xamir uchidan patir”, oldinda bizni katta rejalar kutmoqda).

Frazeologik iboralar o‘quvchilarga yangi so‘z birikmalari va ularning kontekstual ma’nolarini o‘rgatadi. O‘zbek tilida mahalliy aholi gapirish uchun frazeologizmlar va maqollarni bilish muhim, chunki ular kundalik muloqotda tez-tez ishlatiladi. Frazeologizmlar, maqollar va matallar quyidagi yo‘llar bilan talabalarning nutqini o‘stirishga xizmat qiladi: a) Og‘zaki nutqni rivojlantiradi va o‘quvchilar frazeologizmlarni dialoglarda ishlatish orqali muloqotni yanada jonli va tabiiy qiladi. Maqollar muhokamalarda fikrni qisqa va lo‘nda ifoda etishga yordam beradi (masalan, “mehnat mehnatning tagi rohat” orqali mehnatkashlik muhimligini ta’kidlash); b) Yozma nutqni yanada boyitishga xizmat qiladi. Insho, hikoya yoki maqola yozishda frazeologizmlar ishlatish matnni yanada jozibali qiladi. O‘quvchilar yozma ishlarida madaniy kontekstni aks ettiruvchi iboralar qo‘llash orqali o‘z fikrlarini chuqurroq ifoda etadi; v) tinglash va tushunish ko‘nikmalarini oshirish uchun xizmat qiladi. O‘zbek xalq qo‘shiqlari, hikoyalar yoki filmlardagi frazeologizmlarni tinglash talabalarning nutqni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, “Mahallada duv-duv gap” filmidagi dialoglarda ishlatilgan frazeologizmlarni tahlil qilish tinglash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Maqollar va frazeologizmlar orqali talabalar o‘zbek

xalqining qadriyatlar tizimini (masalan, jamoaviylik, hurmat, sabr) o‘rganadi, bu ularning ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. Каримова З. “Танқидий тафаккур ва ахборот таҳлили”. – Тошкент: Маърифат, 2018. – 67-б.
2. Расулов А. “Ижодий ёзув машқлари асослари”. – Самарқанд: Зиё, 2016. – 14-б.
3. Зокирова М. “Ўқувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш усуллари” // Педагогика журнали, 2021, №3. – 26-б.
4. Загашев И. Умение задавать вопросы // Начальная школа, 2001 (4). – С. 13.
5. Снетков В.М. Психология коммуникации в организациях (учебное пособие). – Санкт-Петербург: СПбГУ, 1999. – 116 с.